**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI O’RTA VA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAHIMOVA BEKPOSHSHA BAHODIROVNA**

# YANGI O’ZBEK ADABIYOTI TARIXI

**Amaliy mashg’ulotlar uchun uslubiy qo’llanma**

Urganch - 2012 yil

Mazkur uslubiy qo’llanmada “Yangi o’zbek adabiyoti tarixi” fani bo’yicha o’tkaziladigan amaliy mashg’ulot darslarining samaradorligini ta’minlash maqsadida talabalarga muhim tavsiyalar berildi. Uslubiy qo’llanma o’zbek filologiyasi fakulteti talabalari uchun mo’ljallangan.


Mas’ul muharrir: f.f.d., prof. H. Abdullaev

Taqrizchilar: f.f.n. N. Jumaniyozova
f.f.n. I. Hajieva

Uslubiy qo’llanma Urganch Davlat universiteti Filologiya va san’at fakulteti ilmiy Kengashining 2012 yil aprel yig’ilishida nashrga tavsiya etilgan.

# KIRISH

“Yangi o’zbek adabiyoti tarixi” – 5220100-o’zbek filologiyasi ta’lim yo’nalishining o’quv rejasidagi umumkasbiy fanlardan biri. U o’quv jarayonida ta’limning ma’ruza, amaliy, seminar mashg’ulotlari va mustaqil ish kabi shakllari orqali o’rganiladi. Ushbu uslubiy qo’llanma amaliy mashg’ulot darslari uchun mo’ljallangan.

Talaba yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o’stirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Shu jihatdan amaliy dars mashg’ulotlari talabalardagi mustaqil fikrlash tafakkurini shakllantirishda eng zarur mashg’ulot turi hisoblanadi. “Yangi o’zbek adabiyoti tarixi” fanidan amaliy mashg’ulot darslariga talabalarning tayyorgarlik ko’rishlari uchun yordam beruvchi ushbu qo’llanmaning maqsadi fan yuzasidan talabalarda mustaqil, har tomonlama mustahkam bilimga ega bo’lishlari uchun imkoniyatlar yaratishdir. Zero, amaliy mashg’ulotlar talabada olingan bilimlarni mustahkamlash, ikkinchidan, turli manba va adabiyotlardan mustaqil foydalanish, kitob ustida ishlash, uchinchidan, fikr doirasini kengaytirish va ilmiy izlanish malakasini shakllantirishga imkon beradi.

Yangi o’zbek adabiyoti tarixi namoyandalari ijodi, asarlari haqida mustaqil, puxta ilmiy mulohaza yurita biladigan mutaxassis tayyorlash mazkur fanning bosh muddaosidir. Bu maqsadga erishuvda, yuqorida ta’kidlanganidek, amaliy mashg’ulot darslari muhim vositalardan sanaladi.

“Yangi o’zbek adabiyoti tarixi” fani bo’yicha amaldagi dastur asosida amaliy mashg’ulot darslariga 26 soat ajratilgan. Amaliy mashg’ulot darslari quyidagi mavzularda olib boriladi:

1. Fitrat lirikasi va nasri
2. Abdulla Qodiriy hajviyoti
3. Cho’lpon nasri va dramaturgiyasi
4. Oybek poeziyasi
5. G’afur G’ulom nasri
6. A.Qahhorning qissa va romanlari

7. Hamid Olimjon poeziyasi
8. Maqsud Shayxzoda ijodi
9. Mirtemir ijodi
10. Zulfiya ijodi
11. Asqad Muxtor nasri
12. Said Ahmad komediyalari
13. O.Yoqubov qissa va dramalari

Mazkur uslubiy qo'llanmada amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish tartiblari, undan kutiladigan o'quv maqsadlari, kerakli jihozlar, materiallar, ishni bajarish tartibi va foydalaniladigan uslub ko'rsatib o'tilgan.

**1- amaliy mashg`ulot**

**Fitrat lirikasi va nasri**

| **O`quv vaqti: 80 minut** | **Talaba soni** | |
|---|---|---|
| **O`quv mashg`ulotining tuzilishi**<br>**Amaliy mashg`ulot rejasi** | 1. XX asrning 20-30-yillari adabiyotida Fitratning o'rni.<br>2. Fitrat lirikasining o'ziga xos xususiyatlari<br>3. Fitrat nasri | |
| *O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarni XX asr boshlari adabiyoti, Fitrat lirikasi va nasri xususida olgan ma'lumotlarini to`ldirish va bilimlarini baholash.* | | |
| Pedagogik vazifalar:<br>Talabalar tomonidan o`zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish va baholash | O`quv faoliyatining natijalari:<br>Talabalarni mavzu bo`yicha bilimlarini ko`rsatadilar. Axborotlarni reja asosida ochib beradilar. | |
| Ta'lim usullari: | Tushunchalar tahlili | |
| O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli | Kichik guruhlarda ishlash | |
| Ta'lim vositalari | marker, topshiriqlar | |
| Qayta aloqa usullari va vositalari | Savol-javob | |

**O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi**

| **Ishlash bosqichlari, vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O`qituvchining** | **Talabaning** |
| 1- bosqich<br>1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 | 1 Talabalarni ped. texnologiya talablari asosida 3 ta guruhga bo`ladi va topshiriqlar beradi.<br>***1 guruhga topshiriq*** XX | Talabga muvofiq guruhlarga bo`linadilar va topshiriqlarni qabul qilib oladilar. |

| | | |
|---|---|---|
| min).<br>1.2 O`quv mashgulotiga kirish (10min) | asrning 20-30-yillari adabiyotida Fitratning o'rnini yoritib bering<br>***2 guruhga topshiriq*** Fitrat lirikasining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering<br>3 ***guruhga topshiriq*** Fitrat nasri rejasini ochib bering | |
| 2-bosqich<br>Asosiy 50 min | Har bir guruh topshiriq ustida ishlashini nazorat qilib zaruriy ko`rsatmalarni va yordamini berib boradi. | Har bir guruh o`z topshirig`i ustida ishlaydi, markerlar yordamida "Tushunchalar tahlili" jadvalini chizib to`ldirib boradi.<br>Guruhlardan 2ta (va bundan ortiq) ishtirokchi topshiriq bo`yicha chiqish qiladilar |
| 3- bosqich. Yakuniy natijalar 15 min. | Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Har bir guruh faoliyati tavsiflanadi va guruhning har bir ishtirokchisi qanday baholanganligi aytiladi | Har bir talaba o`z faoliyati bahosini eshitadi va e'tirozi bo`lsa aytadi. Mashg`ulot yuzasidan mulohazalari bo`lsa bildirishi mumkin. |

Abdurauf Abdurahmon o'g'li Fitrat adabiyotimiz va madaniyatimiz tarixida shoir va nosir, dramaturg va publitsist, adabiyotshunos va tilshunos, tarixchi va faylasuf, san'atshunos va jamoat arbobi sifatida qolgan. Mavzuning dastlabki rejasida Fitratning 20-30-yillardagi faoliyatiga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bunda asosan, Fitratning adabiy-tanqidiy qarashlari, publitsistikasiga

to’xtalib o’tiladi. “Adabiyot qoidalari”, “Aruz haqida” kabi ilmiy risolalari o’zbek adabiyotshunosligining yutug’i ekanligi ta’kidlanadi.

Fitrat lirikasi to’g’risida to’xtalganda, uning “Mirrix yulduziga”, “Yurt qayg’usi”, “Sharq”, “Shoir” kabi she’rlari tahlilga tortiladi.

Fitratning nasr sohasidagi faoliyati yoritiladi. Adib hikoyalarining mazmun-mundarijasi, yozuvchi mahorati masalalari yoritiladi. Quyidagi “Tushunchalar tahlili” orqali shoir asarlari tahlil etiladi. “Tushunchalar tahlili” metodida o’quvchilar o’zlari tushungan yangi ma’lumotlarni tahlil qilib, bir-birlari bilan fikr almashadilar:

**Tushunchalar tahlili**

| № | Tushuncha nomi | Tahlil |
|---|---|---|
| **1** | “Mirrix yulduziga” | |
| **2** | “Adabiyot qoidalari” | |
| **3** | “Sharq” | |
| **4** | “Shoir” | |
| **5** | “Yurt qayg’usi” | |

**Adabiyotlar:**

1. Abdurauf Fitrat. Chin sevish. She’rlar, dramalar, maqolalar. –T, 1996.
2. Mirvaliev S, Shokirova R. O’zbek adiblari,-T, “Fan”, 2007.-B.19-27-21.
3. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari.-T. “O’zbekiston”, 2008.-B.104-115.
4. Sanjar Sodiq. Yangi o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., "Universitet", 2005.
5. G’aniev I. Dramatik asarda sifatlash. “O’zbek tili va adabiyoti”, 2006, 5- son.

FOYDALANISH UCHUN INTERNET SAYTLARI.

1. www.literature.uz.
2. www.poetika.lv.
3. www.ziyonet.uz.
4. www.ta’lim.uz
5. www.pedagog.uz
6. www.ref.uz

**2- amaliy mashg`ulot**

**Abdulla Qodiriy hajviyoti.**

| O`quv vaqti: 80 minut | Talaba soni |
|---|---|

| **O`quv mashg`ulotining tuzilishi**<br>**Amaliy mashg`ulot rejasi** | 1.Adib hajviyalarida mavzu va g`oya masalasi.<br>2.«Toshpo`lat tajang nima deydi?» hajviyasi tahlili.<br>3. Hajviy asarlarida adib mahorati masalasi. |
|---|---|
| *O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarning Abdulla Qodiriy hajviyoti xususida olgan ma'lumotlarini to`ldirish va bilimlarini baholash.* | |
| Pedagogik vazifalar:<br>Talabalar tomonidan o`zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish va baholash | O`quv faoliyatining natijalari:<br>Talabalarni mavzu bo`yicha bilimlarini ko`rsatadilar. Axborotlarni reja asosida ochib beradilar. |
| Ta'lim usullari: | "Venn diagrammasi" |
| O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli | guruhiy |
| Ta'lim vositalari | topshiriqlar |
| Qayta aloqa usullari va vositalari | Savol-javob |

**O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi**

| **Ishlash bosqichlari, vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O`qituvchining** | **Talabaning** |
| 1- bosqich<br>1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min).<br>1.2 O`quv mashgulotiga kirish (10min) | 1 Talabalarni ped. texnologiya talablari asosida 3 ta guruhga bo`ladi va topshiriqlar beradi.<br>***1 guruhga topshiriq*** Adib hajviyalarida mavzu va g`oya masalasini yoritib bering<br>***2 guruhga topshiriq*** «Toshpo`lat tajang nima | Talabga muvofiq guruhlarga bo`linadilar va topshiriqlarni qabul qilib oladilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | deydi?» hajviyasi tahlil qilib bering<br>3 ***guruhga topshiriq*** Hajviy asarlarida adib mahorati masalasini klaster yordamida ochib bering | |
| 2-bosqich Asosiy 50 min | Har bir guruh topshiriq ustida ishlashini nazorat qilib zaruriy ko`rsatmalarni va yordamini berib boradi. | Har bir guruh o`z topshirig`i ustida ishlaydi, markerlar yordamida Venn diagrammasi jadvalini chizib to`ldirib boradi. Guruhlardan 2ta (va bundan ortiq) ishtirokchi topshiriq bo`yicha chiqish qiladilar |
| 3- bosqich. Yakuniy natijalar 15 min. | Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Har bir guruh faoliyati tavsiflanadi va guruhning har bir ishtirokchisi qanday baholanganligi aytiladi | Har bir talaba o`z faoliyati bahosini eshitadi va e'tirozi bo`lsa aytadi. Mashg`ulot yuzasidan mulohazalari bo`lsa bildirishi mumkin. |

Abdulla Qodiriy XX asr o'zbek milliy adabiyotining yirik vakili. U yetuk romannavis bo'lish bilan birga hajviy asarlarning mohir ustasidir. Uning "Toshpo'lat tajang nima deydi?", "Kalvak Mahzumning xotira daftaridan" kabi hajviy asarlari o'zbek adabiyotining durdona asarlari sanaladi. Adib asarlarida o'z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli va ozod ko'rish istagi sezilib turadi. Bu xususiyat uning hajviy asarlariga ham aloqador bo'lib, Toshpo'lat tajang kabi hayotning mohiyatiga tushunmay tajang bo'lgan chapanilar, bekorchi – dangasalar ustidan qattiq kuladi. Kalvak Mahzum kabi johil ruhoniylarning ikkiyuzlamachiligi va tekinxo'rligini fosh etadi.

“Toshpo’lat tajang nima deydi?”  hajviyasi tahlil qilinadi, asar matnini diqqat bilan o’qib, adib mahorati namalarda, qanday namoyon bo’lganligaga e’tibor qaratiladi. Asarning mavzusi, unda ifoda etilgan g’oya, obrazlar, davr va adib masalalari yoritiladi.  Venn diagrammasi jadvali orqali Qodiriy hajviyoti haqida bahs yuritadilar:




**Adabiyotlar:**

1. Abdulla Qodiriy. G’irvonlik Mallavoy.-T.Adabiyot va san’at. 293 b.
2. Mirvaliev S, Shokirova R. O’zbek adiblari,-T, “Fan”, 2007.-B.19-27-21.

3. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari.-T. “O’zbekiston”, 2008.-B.168-179.
4. Sanjar Sodiq. Yangi o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., "Universitet", 2005.
5. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. T., "O`qituvchi" nashriyoti. 1999.

FOYDALANISH UCHUN INTERNET SAYTLARI.

1. www.literature.uz.
2. www.poetika.lv.
3. www.ziyonet.uz.
4. www.ta’lim.uz
5. www.pedagog.uz
6. www.ref.uz

## 3- amaliy mashg`ulot

## Cho`lpon nasri va dramaturgiyasi.

| **O`quv vaqti: 80 minut** | **Talaba soni** |
|---|---|
| **O`quv mashg`ulotining tuzilishi**<br>**Amaliy mashg`ulot rejasi** | 1. Adibnnig nasriy asarlari.<br>2. «Kecha va kunduz» romanida psixologik tahlilning qo`llanilishi.<br>3. Cho`lpon dramaturg. “Yorqinoy” dramasida mavzu va g`oya. |
| *O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarning Cho’lpon nasri va dramaturgiyasi xususida olgan ma’lumotlarini to`ldirish va bilimlarini baholash.* | |
| Pedagogik vazifalar:<br>Talabalar tomonidan o`zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish va baholash | O`quv faoliyatining natijalari:<br>Talabalarni mavzu bo`yicha bilimlarini ko`rsatadilar. Axborotlarni reja asosida ochib beradilar. |
| Ta’lim usullari: | “Klaster”, |
| O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli | guruhiy |
| Ta’lim vositalari | marker, topshiriqlar |

| | |
|---|---|
| Qayta aloqa usullari va vositalari | Savol-javob |

**O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi**

| **Ishlash bosqichlari, vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O`qituvchining** | **Talabaning** |
| 1- bosqich<br>1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min).<br>1.2 O`quv mashgulotiga kirish (10min) | 1 Talabalarni ped. texnologiya talablari asosida 3 ta guruhga bo`ladi va topshiriqlar beradi.<br>***1 guruhga topshiriq*** Adibnnig nasriy asarlari, ularda mavzu va g’oya masalasini yoritib bering<br>***2 guruhga topshiriq*** «Kecha va kunduz» romanida psixologik tahlilning qo`llanilishini obrazlar misolida yoritib bering<br>3 ***guruhga topshiriq*** Cho`lpon dramaturg. “Yorqinoy” dramasida mavzu va g`oya masalasini klaster yordamida ochib bering | Talabga muvofiq guruhlarga bo`linadilar va topshiriqlarni qabul qilib oladilar. |
| 2-bosqich<br>Asosiy 50 min | Har bir guruh topshiriq ustida ishlashini nazorat qilib zaruriy ko`rsatmalarni va yordamini berib boradi. | Har bir guruh o`z topshirig`i ustida ishlaydi, markerlar yordamida klaster, sxema yoki jadvalini chizib to`ldirib boradi. Guruhlardan 2ta (va bundan ortiq) ishtirokchi topshiriq |

| | | |
|---|---|---|
| | | bo`yicha chiqish qiladilar |
| 3- bosqich. Yakuniy natijalar 15 min. | Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Har bir guruh faoliyati tavsiflanadi va guruhning har bir ishtirokchisi qanday baholanganligi aytiladi | Har bir talaba o`z faoliyati bahosini eshitadi va e'tirozi bo`lsa aytadi. Mashg`ulot yuzasidan mulohazalari bo`lsa bildirishi mumkin. |

O'zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Abdulhamid Cho'lpon she'riyat, nasr, publitsistika, dramaturgiya sohalarida qalam tebratgan. U 1914-1917-yillarda yaratgan "Do'xtir Muhammadiyor", "Qurboni jaholat" singari hikoyalarida madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisi sifatida maydonga chiqdi. Adibning "Kecha va kunduz" romanida mehnatkash halqimizning, xususan, xotin-qizlarning og'ir, kulfatu mashaqqatlarga to'liq hayoti aniq voqealar, yorqin obrazlar vositasida ta'sirli va jonli qilib ifodalangan.

Asar mantidan parchalar o'qib, tahlil qilinadi, obrazlar silsilasi, adib mahorati masalalariga e'tibor beriladi.

Cho'lponning "Yorqinoy" dramasi folklor materiallari asosida yaratilgan. U asarni "totli va boy tili bilan ertak aytib berib, shu dramaning yozilishiga sabab bo'lgan kampir onaga hurmat bilan bag'ishlayman", deb yozgan edi. "Yorqinoy va Po'lat obrazlariga ta'rif beriladi. O'lmas Botir, Kal, Nishabsoybegi, Momo xotin obrazlari tahlil qilinadi.  Klaster metodi orqali Cho'lpon asarlarini tahlil qiladilar:




**Adabiyotlar:**

1. Cho`lpon. Asarlar. Uch jildlik. T., Adabiyot va san’at nashriyoti. 1995, 456-b.

2. Mirvaliev S, Shokirova R. O’zbek adiblari,-T, “Fan”, 2007.270-b.

3. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari.-T. “O’zbekiston”, 2008.-B.168-179.

4. Sanjar Sodiq. Yangi o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., "Universitet", 2005.

5. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. T., "O`qituvchi" nashriyoti. 1999.

FOYDALANISH UCHUN INTERNET SAYTLARI.

1. www.literature.uz.
7. www.poetika.lv.
8. www.ziyonet.uz.

9. www.ta’lim.uz
10. www.pedagog.uz
11. www.ref.uz


## 4- amaliy mashg`ulot

## Oybek poeziyiasi

| O`quv vaqti: 80 minut | Talaba soni |
|---|---|
| **O`quv mashg`ulotining tuzilishi**<br>**Amaliy mashg`ulot rejasi** | 1. Shoirning ilk she’riyatiga xos xususiyatlar.<br>2.«Chimyon daftaridan» turkum she’rlarida shoir mahoratining namoyon bo`lishi. |
| *O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarning Oybek lirikasi xususida olgan ma’lumotlarini to`ldirish va bilimlarini baholash.* | |
| Pedagogik vazifalar:<br>Talabalar tomonidan o`zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish va baholash | O`quv faoliyatining natijalari:<br>Talabalarni mavzu bo`yicha bilimlarini ko`rsatadilar. Axborotlarni reja asosida ochib beradilar. |
| Ta’lim usullari: | BBB jadval |
| O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli | guruhiy |
| Ta’lim vositalari | marker, topshiriqlar |
| Qayta aloqa usullari va vositalari | Savol-javob |

## O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

| Ishlash bosqichlari, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O`qituvchining** | **Talabaning** |
| 1- bosqich<br>1.1 O`quv | 1 Talabalarni ped. texnologiya | Talabga muvofiq guruhlarga |

| | | |
|---|---|---|
| xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min).<br>1.2 O`quv mashgulotiga kirish (10min) | talablari asosida 3 ta guruhga bo`ladi va topshiriqlar beradi.<br>***1 guruhga topshiriq*** Shoirning ilk she'riyatiga xos xususiyatlarni yoritib bering<br>***2 guruhga topshiriq*** «Chimyon daftaridan» turkum she'rlarida shoir mahoratining namoyon bo`lishini tushuntiring<br>3 ***guruhga topshiriq*** Shoir she'riyatida mavzu va g`oya masalasini klaster yordamida ochib bering | bo`linadilar va topshiriqlarni qabul qilib oladilar. |
| 2-bosqich Asosiy 50 min | Har bir guruh topshiriq ustida ishlashini nazorat qilib zaruriy ko`rsatmalarni va yordamini berib boradi. | Har bir guruh o`z topshirig`i ustida ishlaydi, markerlar yordamida BBB jadvalini chizib to`ldirib boradi.<br>Guruhlardan 2ta (va bundan ortiq) ishtirokchi topshiriq bo`yicha chiqish qiladilar |
| 3- bosqich. Yakuniy natijalar 15 min. | Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Har bir guruh faoliyati tavsiflanadi va guruhning har bir ishtirokchisi qanday baholanganligi aytiladi | Har bir talaba o`z faoliyati bahosini eshitadi va e'tirozi bo`lsa aytadi. Mashg`ulot yuzasidan mulohazalari bo`lsa bildirishi mumkin. |

Noyob lirik shoir, benazir nosir va atoqli olim sifatida dong taratgan Oybek XX asr o`zbek adabiyotining iftixoridir. Binobarin, mazkur adabiyot taraqqiyotini uning

ijodisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Oybekning kamalakdek tovlanuvchi, serjilo va qudratli she'riyatini, purviqor va hikmatli nasrini million-million kitobxonlar sevib o`qiyapti.

Shoirning “Chimyon daftari” she’rlar to’plamida ona yurtimizning go’zal tabiati mohirlik bilan tasvir etiladi. She’rlardan namunalar o’qib tahlil etiladi va yod olib, ifodali o’qiladi.

Oybek she’riyatining mavzu va g’oyasi ochiladi, shoir mahorati masalalariga diqqat qaratiladi, BBB jadvali to’ldiriladi:

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |
| | | |

## Adabiyotlar:


1. Oybek. Mukammal asarlar to`plami. 20 jildlik. T., "Fan", 1990-1995.
2. Mirvaliev S, Shokirova R. O’zbek adiblari,-T, “Fan”, 2007.270-b.
3. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari.-T. “O’zbekiston”, 2008.-B.168-179.
4. Sanjar Sodiq. Yangi o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., "Universitet", 2005.
5. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. T., "O`qituvchi" nashriyoti. 1999.
6. Millatni uyg’otgan adib. –Toshkent. Universitet, 2005, -B.12-18.
7. Sabriddinov A. Oybekning she’riy mahorati. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2006.
8. www.pedagog.uz.

9.. www.ziyonet.uz.


## 5- amaliy mashg`ulot

## G`afur G`ulom nasri.

| **O`quv vaqti: 80 minut** | **Talaba soni** |
|---|---|
| **O`quv mashg`ulotining tuzilishi**<br>**Amaliy mashg`ulot rejasi** | 1.«Shum bola» yumoristik asar.<br>2. «Mening o`g`rigina bolam» hikoyasida gumanizm. |
| *O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarning G`afur G`ulom nasri xususida* | |

| *olgan ma'lumotlarini to`ldirish va bilimlarini baholash.* | |
|---|---|
| Pedagogik vazifalar:<br>Talabalar tomonidan o`zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish va baholash | O`quv faoliyatining natijalari:<br>Talabalarni mavzu bo`yicha bilimlarini ko`rsatadilar. Axborotlarni reja asosida ochib beradilar. |
| Ta'lim usullari: | BBB jadvali |
| O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli | guruhiy |
| Ta'lim vositalari | marker, topshiriqlar |
| Qayta aloqa usullari va vositalari | Savol -javob |

**O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi**

| **Ishlash bosqichlari, vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O`qituvchining** | **Talabaning** |
| 1- bosqich<br>1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min).<br>1.2 O`quv mashgulotiga kirish (10min) | 1 Talabalarni ped. texnologiya talablari asosida 3 ta guruhga bo`ladi va topshiriqlar beradi.<br>***1 guruhga topshiriq*** .«Shum bola» yumoristik asar syujetini yoritib bering<br>***2 guruhga topshiriq*** «Mening o`g`rigina bolam» hikoyasida gumanizm masalasini tushuntiring<br>3 ***guruhga topshiriq*** G`afur G`ulom nasrida mavzu va g`oya masalasini klaster yordamida | Talabga muvofiq guruhlarga bo`linadilar va topshiriqlarni qabul qilib oladilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | ochib bering | |
| 2-bosqich Asosiy 50 min | Har bir guruh topshiriq ustida ishlashini nazorat qilib zaruriy ko`rsatmalarni va yordamini berib boradi. | Har bir guruh o`z topshirig`i ustida ishlaydi, markerlar yordamida klaster, sxema yoki jadvalini chizib to`ldirib boradi. Guruhlardan 2ta (va bundan ortiq) ishtirokchi topshiriq bo`yicha chiqish qiladilar |
| 3- bosqich. Yakuniy natijalar 15 min. | Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Har bir guruh faoliyati tavsiflanadi va guruhning har bir ishtirokchisi qanday baholanganligi aytiladi | Har bir talaba o`z faoliyati bahosini eshitadi va e'tirozi bo`lsa aytadi. Mashg`ulot yuzasidan mulohazalari bo`lsa bildirishi mumkin. |

Nodir iste'dod sohibi G'afur G'ulom faylasuf shoir, mohir nosir sifatida o'zbek adabiyoti hazinasiga ulkan hissa qo'shdi.

Adibning "Shum bola" qissasida o'zbek halqining o'tmishdagi og'ir hayoti, xususan, o'smirlarning qarovsizligi, ularning bir parcha non deb darbadar kezishlari tasvir etiladi. Asarda kuchli satira va yumordan foydalanadi.

G'afur G'ulom hikoyalarida milliy ruh bo'rtib turadi Yozuvchining xalqning o'tmishdagi og'ir ahvoli haqida yozilgan "Mening o'g'rigina bolam" (1962) hikoyasida bu xususiyat ochiq ko'rinadi. Hikoyadagi kampir obrazi o'tmishda qiynalib tirikchilik o'tkazgan onalarimizning tipik vakili bo'lib, uning soddaligi, samimiyligi, insonparvar va mehribonligi milliy shira asosida jozibali qilib ifodalangan. Har ikkala asar matni diqqat bilan o'qib, mavzu, g'oya, obrazlar talqini, adib mahorati tahlil qilinadi.

| **Bilaman** | **Bilishni xohlayman** | **Bilib oldim** |
|---|---|---|
| | | |
| | | |

**Adabiyotlar:**

1. G’.G’ulom. Asarlar. IX jild. –Toshkent.: “Fan”, 1998.
2. Mirvaliev S, Shokirova R. O’zbek adiblari,-T, “Fan”, 2007.270-b.
3. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari.-T. “O’zbekiston”, 2008.-B.168-179.
4. Sanjar Sodiq. Yangi o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., "Universitet", 2005.
5. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. T., "O`qituvchi" nashriyoti. 1999.
6. www.pedagog.uz.
7. www.ziyonet.uz.

**6- amaliy mashg`ulot**

**Abdulla Qahhorning qissa va romanlari.**

| **O`quv vaqti: 80 minut** | **Talaba soni** |
|---|---|
| **O`quv mashg`ulotining tuzilishi**<br>**Amaliy mashg`ulot rejasi** | 1.«Muhabbat» qissasi haqida.<br>2. «Sarob» romani atrofidagi bahslar. |
| *O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarning Abdulla Qahhorning qissa va romanlari xususida olgan ma’lumotlarini to`ldirish va bilimlarini baholash.* | |
| Pedagogik vazifalar:<br>Talabalar tomonidan o`zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish va baholash | O`quv faoliyatining natijalari:<br>Talabalarni mavzu bo`yicha bilimlarini ko`rsatadilar. Axborotlarni reja asosida ochib beradilar. |
| Ta’lim usullari: | “Klaster” |
| O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli | guruhiy |
| Ta’lim vositalari | marker, flipchart, topshiriqlar |
| Qayta aloqa usullari va vositalari | Savol-javob |

**O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi**

| Ishlash bosqichlari, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O`qituvchining** | **Talabaning** |
| 1- bosqich<br>1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min).<br>1.2 O`quv mashgulotiga kirish (10min) | 1 Talabalarni ped. texnologiya talablari asosida 3 ta guruhga bo`ladi va topshiriqlar beradi.<br>***1 guruhga topshiriq*** .«Muhabbat» asari syujetini yoritib bering<br>***2 guruhga topshiriq*** «Sarob» hikoyasida gumanizm masalasini tushuntiring<br>3 ***guruhga topshiriq*** A.Qahhor nasrida mavzu va g`oya masalasini klaster yordamida ochib bering | Talabga muvofiq guruhlarga bo`linadilar va topshiriqlarni qabul qilib oladilar. |
| 2-bosqich<br>Asosiy 50 min | Har bir guruh topshiriq ustida ishlashini nazorat qilib zaruriy ko`rsatmalarni va yordamini berib boradi. | Har bir guruh o`z topshirig`i ustida ishlaydi, markerlar yordamida klaster, sxema yoki jadvalini chizib to`ldirib boradi. Guruhlardan 2ta (va bundan ortiq) ishtirokchi topshiriq bo`yicha chiqish qiladilar |
| 3- bosqich.<br>Yakuniy natijalar 15 min. | Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Har bir guruh faoliyati tavsiflanadi va guruhning har bir ishtirokchisi qanday | Har bir talaba o`z faoliyati bahosini eshitadi va e'tirozi bo`lsa aytadi. Mashg`ulot yuzasidan mulohazalari bo`lsa |

| | | |
|---|---|---|
| | baholanganligi aytiladi | bildirishi mumkin. |

XX asr o'zbek adabiyoti tarixini bezab turgan qutlug' nomlar orasida Abdulla Qahhor nomi alohida hurmat va e'tiborga sazovor. Abdulla Qahhor ijodi o'zining dastlabki bosqichidayoq tanqidchilik e'tiboriga tushdi. Asrning deyarli yetmish besh yili davomida bu noyob ijod haqida yuzlab maqolalar yozildi. U adabiyotimiz tarixida jonkuyar adabiyot fidoyisi, xaqgo'y va halol inson, keng fikrli badiiy salohiyat sohibi sifatida barhayotdir.

Uning "Muhabbat" qissasida Anvar va Muhayyo ismli ikki yosh yurakning buloq suvidek toza, quyosh nuridek otashin muhabbati hayajon bilan hikoya qilinadi. Asarning mazmun doirasi keng va teran. Unda ikki qalbning sevgi sarguzashti asosida inson xarakterining murakkabligi, yoshlar tafakkur dunyosining kengligi ochib beriladi.

Adibning "Sarob" romani tanqidchilikda juda ko'p bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Romanning mavzu va g'oyasi, Saidiy va Munis obrazlari tahlil qilinadi.




**Adabiyotlar:**

1. Abdulla Qahhor. Asarlar. Besh jildlik, 5-jild, -T, G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989, -B.21-53.

2. Mirvaliev S, Shokirova R. O’zbek adiblari,-T, “Fan”, 2007.270-b.
3. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari.-T. “O’zbekiston”, 2008.-B.168-179.
4. Sanjar Sodiq. Yangi o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., "Universitet", 2005.
5. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. T., "O`qituvchi" nashriyoti. 1999.
6. Normatov U. Ijod sehri. Toshkent. Sharq. 2007. 352 b.
7. www.pedagog.uz.
8. www.ziyonet.uz.

## 7- amaliy mashg`ulot

## Hamid Olimjon she’riyati.

| **O`quv vaqti: 80 minut** | **Talaba soni** |
|---|---|
| **O`quv mashg`ulotining tuzilishi**<br>**Amaliy mashg`ulot rejasi** | 1 H.Olimjon she’riyatining mavzu ko`lami va janr rang-barangligi.<br>2.Shoir she’rlarida lirik qahramon.<br>3.«O`zbekiston» she’ri tahlili. |
| *O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarning H.Olimjon she’riyati xususida olgan ma’lumotlarini to`ldirish va bilimlarini baholash.* | |
| Pedagogik vazifalar:<br>Talabalar tomonidan o`zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish va baholash | O`quv faoliyatining natijalari:<br>Talabalarni mavzu bo`yicha bilimlarini ko`rsatadilar. Axborotlarni reja asosida ochib beradilar. |
| Ta’lim usullari: | BBB jadval |
| O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli | guruhiy |
| Ta’lim vositalari | marker, topshiriqlar |
| Qayta aloqa usullari va vositalari | Savol-javob |

## O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

| Ishlash bosqichlari, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O`qituvchining** | **Talabaning** |
| 1- bosqich<br>1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min).<br>1.2 O`quv mashgulotiga kirish (10min) | 1 Talabalarni ped. texnologiya talablari asosida 3 ta guruhga bo`ladi va topshiriqlar beradi.<br>***1 guruhga topshiriq*** H.Olimjon she’riyatining mavzu ko`lami va janr rang-barangligini misollar asosida yoritib bering<br>***2 guruhga topshiriq*** Shoir she’rlarida lirik qahramon masalasini yoritib berish<br>3 ***guruhga topshiriq*** «O`zbekiston» she’rini tahlil qilish | Talabga muvofiq guruhlarga bo`linadilar va topshiriqlarni qabul qilib oladilar. |
| 2-bosqich<br>Asosiy 50 min | Har bir guruh topshiriq ustida ishlashini nazorat qilib zaruriy ko`rsatmalarni va yordamini berib boradi. | Har bir guruh o`z topshirig`i ustida ishlaydi, markerlar yordamida sxema yoki jadvalini chizib to`ldirib boradi. Guruhlardan 2ta (va bundan ortiq) ishtirokchi topshiriq bo`yicha chiqish qiladilar |
| 3- bosqich.<br>Yakuniy natijalar 15 min. | Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Har bir guruh faoliyati tavsiflanadi va guruhning har bir ishtirokchisi qanday | Har bir talaba o`z faoliyati bahosini eshitadi va e’tirozi bo`lsa aytadi. Mashg`ulot yuzasidan mulohazalari bo`lsa |

| | | |
|---|---|---|
| | baholanganligi aytiladi | bildirishi mumkin. |

O'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Hamid Olimjon o'zining betakror she'riyati bilan adabiyotimiz hazinasini boyitdi. Shoir ijodining mavzu ko'lami keng va rang-barangdir. Muhabbat, go'zallik, yoshlik, do'stlik, shodlik, baxt, mehr va vafo, vatan va vatanparvarlik kabi tuyg'ular shoir she'riyatining asosiy mavzulari sanaladi.

Shoirning lirik qahramoni tabiatni sevadi, go'zallikka tashna, hayotni jo'shqinlik bilan kuylaydi. Uning "Chirchiq bo'ylarida", "Kuychining xayoli", "O'rik gullaganda", "O'zbekiston" kabi she'rlarida yurtimiz go'zalligi, zahmatkash xalqi, so'lim tabiati mohirona tasvir etilgan.

Hamid Olimjon "O'zbekiston" she'rida rang-barang badiiy tasvir vositalaridan, tabiat manzaralari tasvirdidan mohirona foydalangan. "O'zbekiston" she'ri peyzaj lirikasining nodir namunasi bo'lib, unda manzara asar g'oyasini badiiy yo'l bilan ochishga to'laligicha ochishga xizmat qiladi. She'rlar tahlil qilinadi va shoir mahorati masalasiga e'tibor qaratiladi.

| **Bilaman** | **Bilishni xohlayman** | **Bilib oldim** |
|---|---|---|
| | | |
| | | |

## Adabiyotlar:


1. Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to'plami.-Toshkent, "Fan", 1984.
2. Mirvaliev S, Shokirova R. O'zbek adiblari,-T, "Fan", 2007.270-b.
3. Karimov N. Hamid Olimjon.-T. "O'zbekiston", 1980.
4. Sanjar Sodiq. Yangi o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., "Universitet", 2005.
5. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX

asr o`zbek adabiyoti tarixi. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. T., "O`qituvchi" nashriyoti. 1999.
6. Normatov U. Ijod sehri. Toshkent. Sharq. 2007. 352 b.
7. www.pedagog.uz.
8. www.ziyonet.uz.

## 8- amaliy mashg`ulot
## Maqsud Shayxzoda ijodi

| **O`quv vaqti: 80 minut** | **Talaba soni** |
|---|---|
| **O`quv mashg`ulotining tuzilishi**<br>**Amaliy mashg`ulot rejasi** | 1.Shoir biografiyasi va ilk asarlari.<br>2. Shoir she’riyatining o`ziga xos xususiyatlari.<br>3.M.Shayxzoda-dramaturg. «Mirzo Ulug`bek»ning o`zbek dramaturgiyasidagi o`rni. |
| *O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarning Maqsud Shayxzoda ijodi xususida olgan ma’lumotlarini to`ldirish va bilimlarini baholash.* | |
| Pedagogik vazifalar:<br>Talabalar tomonidan o`zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish va baholash | O`quv faoliyatining natijalari:<br>Talabalarni mavzu bo`yicha bilimlarini ko`rsatadilar. Axborotlarni reja asosida ochib beradilar. |
| Ta’lim usullari: | Tushunchalar tahlili jadvali |
| O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli | guruhiy |
| Ta’lim vositalari | marker, topshiriqlar |
| Qayta aloqa usullari va vositalari | Savol-javob |

### O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

| **Ishlash** | **Faoliyat mazmuni** |
|---|---|

| **bosqichlari, vaqti** | | |
|---|---|---|
| | **O`qituvchining** | **Talabaning** |
